



RAQAMLI O'ZBEKISTON SARI: ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Yarashov Rahmatjon G'ayrat o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs
talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17473526>

ARTICLE INFO

Received: 25th October 2025
Accepted: 28th October 2025
Published: 29th October 2025

KEYWORDS

Elektron hukumat, raqamli
O'zbekiston, raqamli
transformatsiya, axborot-
kommunikatsiya
texnologiyalari, sun'iy
intellekt, my.gov.uz, e-qaror
tizimi, yagona interaktiv
davlat xizmatlari portali,
raqamli iqtisodiyot, davlat
boshqaruvi, kiberxavfsizlik,
raqamli savodxonlik, BMT
elektron hukumat reytingi,
raqamli hukumat, O'zbekiston
- 2030 strategiyasi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi hukumatining elektronlashuv jarayonlari hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron hukumat (E-hukumat) tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini har tomonlama tahlil qilishga bag'ishlangan. Shu bilan birga elektron hukumat tushunchasining kelib chiqishi, uni dunyo miqyosida joriy etilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar ko'rib chiqiladi va dunyo yetakchi davlatlarida joriy etilgan elektron hukumat tizimlarini O'zbekiston Respublikasida yaratilgan elektron hukumat bilan tafovutlarini tahlil qilish bilan bir qatorda ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish maqsadida bir qancha amaliy maslahatlar berib o'tilgan.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida turli xil gadjetlar kompyuter va telefon kabi qurilmalarning ishlab chiqarilishi keskin oshdi. Buning natijasida insonlar anchagina qulaylik va imkoniyatlarga ega bo'la boshladilar. Xususan, ushbu texnologiyalar orqali insonlar o'z yaqinlari bilan tezkor aloqa o'rnatish imkoniga ega chiqdilar. Internet tarmog'ining yaratilishi esa butun dunyoni yana birlashtirib davlatlarni o'rta masofadagi masofa qisqardi. Endilikda inson internet aloqa tizimiga ulanib, butun dunyoda sodir bo'layotgan voqealar haqida xabardor bo'lishi, shuningdek, turli axborot resurslaridan bemalol foydalanishi mumkin. Texnologik taraqqiyot, tabiiyki, davlat boshqaruvi va hukumat tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Shundan kelib chiqib, "axborot texnologiyalari davlat boshqaruvida qanday rol o'ynaydi?" degan savol tug'iladi. Shu o'rinda "elektron hukumat" tushunchasini izohlash maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Elektron hukumat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, davlat xizmati — bu ariza beruvchilarning (ya'ni jismoniy va yuridik

shaxslarning) so'rovlariga ko'ra davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmat turidir. Ushbu xizmatlar orqali fuqarolar o'z huquqlarini ro'yobga chiqarish yoki ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun davlat organlariga murojaat qiladilar. Elektron davlat xizmati esa — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan davlat xizmatidir. Masalan, bundan 15–20 yil avval fuqarolar shaxsni tasdiqlovchi hujjat — pasportni olish uchun davlat organlariga borib, navbatda uzoq vaqt kutishlariga to'g'ri kelgan. Bugungi kunda esa O'zbekiston fuqarolari my.gov.uz platformasi orqali onlayn ariza topshirishlari, kerakli ma'lumotlarni to'ldirishlari va hujjat tayyor bo'lish muddatini kuzatishlari mumkin. Bu kabi raqamli qulayliklar nafaqat fuqarolarning vaqtini tejaydi, balki davlat xizmatlarining samaradorligi va shaffofligini ham oshiradi. Shu bois, elektron hukumat tizimi zamonaviy boshqaruvning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yuqori tahlil qilib o'tgan holatlarga asoslanib elektron hukumatga davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi degan ta'rifni qo'llashimiz mumkin. Endigi tarixga nazar solsak, elektron hukumat borasida dastlabki konsepsiyalarning paydo bo'lishi asosan XX asrning oxiri va XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Elektron hukumatning yo'lga qo'yilishiga bir qancha sabablar mavjud. Dastlabkisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi va uning hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi hukumat tizimlarini chetda qoldirmadi va bu tizimlarni tubdan takomillashtirish kerakligini ko'rsatib berdi. Yana bir muhim sabablardan biri bu qog'ozbozlikni kamaytirish, ma'lumotlarni raqamli shaklda saqlash orqali boshqaruvni samaraliroq qilish ya'ni hozirgacha o'zining dolzarbligini yo'qotmagan korrupsiya va byurokratiya kabi asr vabolarining ildizni quritadiga yo'l sifatida Elektron hukumat ko'rilgan. Yana bir qulayliklardan biri bu fuqarolar uchun ham vaqt va mablag'larni tejash bo'lgan. Fuqarolar davlat organlariga xarajat qilib uzoq masofa bosib o'tgandan ko'ra ular smartfonlari orqali bema'lol davlat organlariga murojaat qilish imkoniga ega bo'ladilar. Xo'sh, qaysi davlat birinchi bu imkoniyatga ega bo'ldi? "e-Estoniyaga xush kelibsiz - dunyodagi birinchi raqamli davlat!". Boltiqbo'yi davlati sanalgan Estoniya SSSR tarkibidan ajralib chiqqanidan so'ng juda katta rivojlanishlarni boshdan kechirdi. Shu o'rinda bu davlat Yevropaning rivojlangan davlatlari va Amerika qo'shma shtatlarini ortda qoldirib 1997-yildi elektron hukumatni shakllantira olgan ilk davlat bo'ldi.

"Biz hozir ustida ishlayotgan navbatdagi maqsadimiz — hukumat ishini uzluksiz, faol va har bir fuqaro uchun shaxsiylashtirilgan tizimga aylantirishdir. Ya'ni kelajakda fuqaro davlat xizmatini olish uchun alohida murojaat qilishi shart bo'lmaydi — hukumatning o'zi fuqarolarning ehtiyojini oldindan bilib, zarur xizmatni avtomatik ravishda taqdim etadi. Masalan, bola tug'ilganda hukumat darhol bolalar nafaqasini tayinlaydi, bolani bog'cha navbatiga qo'shadi, shaxsiy identifikatsiya raqamini beradi, hatto bola uchun ism tanlash jarayonini ham soddalashtiradi. Ammo bu jarayonda biz muhim savol bilan to'qnashamiz: hukumat qanchalik faol, uzluksiz va shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak?" Estoniya hukumati ma'lumotlar bo'yicha bosh mutaxassisi Ott Velsberg.

ASOSIY QISM

"Davr bilan hamnafas bo'lgan davlat - qudrat topadi" degan tamoyilga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasida ham hukumatni fuqarolar uchun shaffoflashtirish va ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mexanizmlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 21-martdagi PQ-1730-son qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan "2012-2014 yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish dasturi"ni amalga oshirish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ushbu qarorda 2012-2014 yillar mobaynida O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiya sohasini, shu jumladan "elektron hukumat"ni rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-son qarori respublikamizda elektron hukumatni joriy etish va yanada rivojlantirish yo'lida muhim turtki bo'ldi.

Mazkur qaror bilan mamlakatimizda "elektron hukumat" tizimini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha bir qator loyihalar va chora-tadbirlar belgilandi, ularni amalga oshirish mexanizmlari va muddatlari aniqlandi. Shu bilan birga, Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirishning Kompleks dasturini amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi Respublika komissiyasi tashkil qilindi. Bundan tashqari, davlat organlarining oldiga ularning funktsiya va vazifalarini operativ va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida axborot tizimlarini yaratish va o'zaro integratsiya qilish, davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish kabi bir qator muhim masalalar qo'yildi. Shuningdek, yuqoridagi hujjatga asosan O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi qoshida 2 ta yangi markaz "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlarini tashkil etildi. Ushbu markazlar oldiga mamlakatimiz axborot resurslari, tizim va tarmoqlarini jadal rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlashdek muhim maqsad va vazifalar qo'yildi. "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish markazi faoliyati mamlakatimizda davlatning aholi va tadbirkorlik subektlari bilan elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Davlat organlarida foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi va axborot resurslarini loyihalashtirish, ishlab chiqish va birlashtirish mexanizmini nazarda tutadigan ushbu tizimni shakllantirishga yagona texnologik yondashuvni ta'minlaydigan mazkur markaz bu boradagi jahon tendensiyalarini hamda xorijiy mamlakatlarda tajribasini tahlil va tadqiq etadi, elektron hukumat" tizimini rivojlantirish jarayonida tadbirkorlik subektlari va aholiga vaqt va mablag'ni tejagan holda sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish, yangi-yangi xizmatlarni elektron ravishga o'tkazish kabi vazifalarni hal etadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash markazining asosiy maqsadi esa "elektron hukumat" ma'lumotlar bazasi, resurslari va axborot tizimlari kompleksining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat organlarining tegishli resurs va tizimlarining axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko'maklashish, "elektron hukumat" tizimining axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish, shuningdek, milliy internet segmentini takomillashtirish borasida ishlarni amalga oshirishdan iborat. 2013- yil 1-iyul kuni Internet tarmog'ida my.gov.uz veb-manzilida YIDXP (Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal) 1-talqini test rejimida ishga tushdi. YIDXP O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 14-fevraldagi PF-1920-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturiga hamda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 30-dekabrda 378- son qaroriga asosan yaratilgan.YIDXP 1-talqida kundalik turmushga taalluqli soha va yo'nalishlarni o'z ichiga oluvchi 40 ga yaqin interaktiv xizmatlar taqdim etildi.4 Keyinchalik esa portal takomillashgani sayin 500 dan tashkilot portallari bilan integratsiyalashgan holda ishlay boshladi. 2017-yil elektron hukumat sohasida katta o'zgarishlar bo'ldi desak bunga hech shubha yo'q. Chunki deganda shu yil YIDXPning ikkinchi talqini my2.gov.uz yo'lga qo'yildi shu bilan birga foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida portalga kirish uchun yagona identifikatsiya qilish tizimi (OneID) ham yaratildi. Shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar uchun shaxsiy va alohida kabinetlar ochildi ,elektron davlat xizmatlari uchun onlayn to'lov imkoniyati va ish haqi va pensiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni onlayn tarzda olishlari, to'lanmagan soliqlar, kommunal xizmatlar, ijro hujjatlari va yo'l harakatiga oid jarimalarini tekshirishlari yo'lga qo'yildi. 2019-2020-yillarda jahon miqyosida Covid-19 pandemiyasi tarqalganligi sababli O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat fuqarolar uchun juda qulay imkoniyatlar yaratdi. 2023-yil o'tkazilgan ICT (Axborot- kommunikatsiya texnologiyalari) sammitida doirasida my3.gov.uz tanishtirilda va unga yuz orqali tanish funksiyasi , "Muxlisa" ovozi yordamchisi, elektron xizmatlarni baholash kabi imkoniyatlar qo'shildi. Yana bir O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimlaridan biri bu "E-qaror" platformasi sanaladi. Bu platforma Vazirlar Mahkamasining 22.06.2021 yildagi 390-sonli Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga "E-Qaror" elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga asosan 2021- yil 1-iyuldan boshlab o'z ishini boshlagan. Barcha mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlari, shu jumladan, xizmat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan qarorlari va farmoyishlarini ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro'yxatga olish va e'lon qilish "E-qaror" elektron tizimi orqali amalga oshiriladi 5ya'ni qonun chiqarish vakolatiga ega organlar tomonidan qabul qilinayotgan barcha qonun loyihalari ushbu

3 <https://www.uzavtoyul.uz/cy/download/post/105>

4 <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/750/956>

5 <https://share.google/h5LXc4G1Cc9A0JOeL>

platformada muhokamaga qo'yiladi va fuqarolar bevosita bu qonunlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu fuqarolarga davlat boshqaruvi tizimiga ta'sirlari borligi hisini va demokratik jamiyatda yashashyotganligiga ishonchlarini oshiradi.O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat tizimi rivojlanib borishi sayin bu sohani qonuniy tartibga solish maqsadida qonun loyihasi yaratildi. Elektron hukumat to'g'risidagi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2015-yil 18-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2015-yil 3- dekabrda ma'qullangan va 2016-yil 10-iyundan boshlab kuchga kirgan. Qonuning tarkibiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 5 bob va 34 moddadan iborat. Qonunning asosiy maqsadi elektron hukumat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek ushbu qonunda elektron hukumatning asosiy prinsiplari keltirib o'tilgan, bular:

- davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi
- elektron davlat xizmatlaridan ariza beruvchilarning teng ravishda foydalanishi
- "bir darcha" prinsipi bo'yicha elektron davlat xizmatlari ko'rsatish
- davlat organlarining hujjatlarini birxillashtirish
- elektron hukumatning yagona identifikatorlaridan foydalanish

- elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini muntazam takomillashtirib borish
- elektron hukumat axborot tizimlarining va axborot resurslarining axborot xavfsizligini hamda kiberxavfsizligini ta'minlash

Ma'lumki, Yangi O'zbekistonni barpo etish va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan muhim strategik hujjatlar – “Raqamli O'zbekiston – 2030”, “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” hamda “O'zbekiston – 2030” strategiyasida barcha hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish, shuningdek 2030 yilgacha BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida eng yetakchi 30 ta davlatlar qatoriga kirishga erishish hamda mamlakatni mintaqaviy “IT-hub”ga aylantirish kabi qator maqsad va vazifalar belgilangan. O'zbekistonda raqamli infratuzilma va xizmatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaralib, qisqa davr ichida salmoqli natijalarga erishilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (“My.gov.uz”) yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish natijasida 2024 yilning oktyabr oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 60 foizidan ko'pi “My.gov.uz” orqali taqdim etilmoqda, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni esa 675 ga yetgan. Sohada erishilayotgan muvaffaqiyatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan, xususan, BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha joriy yilda e'lon qilingan reytingida ham e'tirof etildi. Har ikki yilda belgilangan metodologiyaga asosan BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN Department of Economic and Social Affairs) tomonidan nashr etiladigan mazkur reytingda O'zbekiston olti pog'onaga yuqorilab, ilk marotaba elektron hukumatni rivojlantirish indeksning “juda baland” ko'rsatgichga ega davlatlar guruhiga qo'shildi. Reytingda BMTga a'zo 193 davlatda raqamli hukumatning integratsiyalashganlik darajasi, samarali raqamli siyosati va elektron xizmatlarning qanday ta'minlanganligi kabi raqamli transformatsiyaning muhim jihatlari o'rganiladi. Agar 2022 yil natijalariga ko'ra O'zbekiston mazkur xalqaro reytingda 0,7265 qiymat bilan 69-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024 yilda 0,7999 indeks hisobiga 6 pog'onaga yuqorilab, 63-o'ringa chiqdi. Shu nuqtai nazaridan, mamlakatimizning BMT Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida 0,7999 indeks bilan baholanishi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasining 2025 yil uchun mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichidagi – 0,75 indeks qiymatidan ham oshganliginide ko'rsatadi. Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan har ikki yilda olib boriladigan GovTech yetuklik indeksi bo'yicha so'nggi o'rganishda (2022 yil) O'zbekistonda davlat boshqaruvini raqamlashtirish, elektron hukumat va raqamli xizmatlardan aholining foydalanishidagi imkoniyatlari yuqori baholangan. Ahamiyatlisi, mamlakatimiz GovTech yetuklik indeksida 2020 yilga nisbatan 37 o'ringa yuqorilab, 198 ta mamlakat ichida 43-o'rinni egallagan va “A” toifaga, ya'ni GovTech yetukligining barcha mezonlari eng yuqori davlatlar guruhiga kiritilgan. Shuningdek, “GovTech Enablers” indeksiga muvofiq, raqamli ko'nikmalar va davlat xizmatlaridagi innovatsiyalar bo'yicha O'zbekiston dunyodagi yetakchi to'rtta davlatlar qatoridan joy olgan. Shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasida davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun “Servis davlat” tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish maqsadida davlat xizmatlarini “3 qadam”, “foydalanuvchi uchun moslashtirilgan”, “barchasi bir mobil ilovada” tamoyillari asosida raqamlashtirish hamda “elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi –

“Raqamli hukumat” tizimiga o'tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Qolaversa, O'zbekiston Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlangan Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun'iy intellekt asosida ko'rsatilayotgan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish ham maqsad qilingan. Mazkur ustuvor vazifalar va rejalar, shuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini samarali amalga oshirish, jumladan, barcha hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish maqsadida BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro reytingi ko'rsatkichlari asosida O'zbekistondagi davlat va xo'jalik hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida raqamli transformatsiya holatini reyting baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur metodikaga ko'ra doimiy monitoring olib borilmoqda. Bundan tashqari o'tgan yilda ustuvor tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida 100 ta dasturiy loyiha ishlab chiqilgan. Shuningdek, 500 dan ziyod yangi IT kompaniyalari tashkil etilib, sohaga 475 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilingan. O'zbekistondan IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti jadal o'sishda davom etib, 2023 yilda bu ko'rsatkich 344 million dollarga yetdi. Sohada erishilayotgan ijobiy o'zgarishlar “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida 2030 yilgacha eng yetakchi 30 ta davlatlar qatoriga kirishga erishish, shuningdek ko'zda tutilgan boshqa ustuvor maqsadlar sari tashlanayotgan amaliy qadamlar natijisi, deyishimiz mumkin. Shu bilan birga, raqamli transformatsiyaning to'liq salohiyatiga erishish hamda “raqamli hukumat” tizimiga o'tish uchun infratuzilmani rivojlantirishni davom ettirish, barcha fuqarolar uchun raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, davlat idoralari axborot tizimlarining kiberxavfsizligini samarali ta'minlash, mahalliy IT kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, sohaga sarmoya kiritishga yanada qulay shart- sharoitlar yaratish hamda mintaqaviy va global raqamli texnologiyalar bozoriga integratsiyalashuvni jadallashtirish maqsadga muvofiq. O'z navbatida, O'zbekistonning muvaffaqiyatli raqamli transformatsiyasi nafaqat mamlakatning texnologik imkoniyatlarini oshiradi, balki Markaziy Osiyo mintaqasida raqamli o'zaro bog'liqlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tomonidan mintaqada elektron hukumat va raqamli davlat xizmatlarini rivojlantirishda idoralararo aloqalarni ta'minlash orqali hamkorlikni jadallashtirishi Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiyaga zamin yaratadi.

XULOSA

Bugungi davrda dunyo davlatlarida elektron hukumat davlat boshqaruvi samaradorligi, fuqarolar bilan o'zaro ishonchli muloqot o'rnatish va byurokratik to'siqlarni kamaytirishning eng zamonaviy vositasiga aylandi. Bu rivojlanishlardan barcha davlatlar o'z o'rnida samarali foydalanib demokratik jamiyat ustunlari mustahkamlaga holda kelajak sari qadam tashlamoqdalar. Jahon tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak hozirda elektron hukumat rivojlanish indeksi bo'yicha peshqadam davlatlar bu Estoniya, Janubiy Koreya va Singapur kabilar raqamli davlat modelini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar. Misol tariqasida Estoniyada davlat xizmatlarining 99 foizi elektronlashgan. Yana bir odamni hayratga soladigan jihat bu hukumatni shakllantirishga bo'ladigan saylovga odamlar elektron ravishda qatnashib, ovoz berish imkoniyatiga egalar. Janubiy Koreyada yaratilgan elektron hukumat tizimiga 5000dan ortiq elektron xizmatlar birlashtirilgan bo'lib, sun'iy intellekt texnologiyasi fuqarolarga

kerakli xizmatlarni tanlashda kerakli mos tavsiyalarni beradi. Singapurda esa ularning "Smart Nation" dasturiga sun'iy intellekt, davlat xizmatlari va blokcheynni birlashtirgan holda yagona , zamonaviy va to'liq avtomatlashtirilgan elektron hukumat tizimi yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning Respublikasi ham hozirda bunday marralarni zabr etish borasida ancha jadal harakatlarni ishga solmoqda. Ya'ni "My.gov.uz" platformasidagi xizmatlar soni 700 dan oshdi va BMTning 2024-yilgi Elektron hukumat rivojlanishi reytingida 63-o'ringa ko'tarilganligi sezilarli yutuq bo'ldi. Yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda "elektron hukumat" tizimini yanada rivojlantirish uchun amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bilan bir qatorda, yana quyidagi vazifalarni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- elektron davlat xizmatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash uchun, ushbu tizimdan foydalanuvchilarning ham intellektual darajalari, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

- yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan, bir necha xorij tillarini biladigan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur darajada o'zlashtirgan va qo'llay oladigan, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga innovatsion yondashadigan, elektron hujjatlar bilan samarali ishlay oladigan mutaxassislarni davlat xizmatiga ishga olish;

- davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va kuchli jamoatchilik nazorati ostida ishlashini ta'minlash hamda inson va fuqarolarning murojaatlarini hal etishga ustuvor ahamiyat berish ko'nikmalarini to'liq shakllantirish.

- elektron ish yuritishning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini, jumladan, nafaqat ijro etuvchi hokimiyat, balki qonun va huquq ijodkorlik hamda sud organlari faoliyatiga ham jadal kirib kelayotgani bois elektron tafakkurni shakllantirish masalasi kun tartibiga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda , O'zbekiston Respublikasi elektron hukumatning asosiy poydevorini mukammal shakllantira oldi. Endilikda maqsad esa rivojlanishlarni to'xtatmagan Estoniya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar elektron hukumat modellari darajasiga olib chiqish ya'ni raqamli hukumat bosqichiga to'liq o'tishdir. Bu nafaqat davlat boshqaruvini soddalashtiradi, balki fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchni oshirish bilan birga mamlakatni mintaqaviy nufuzini oshirish uchun muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusova M.S. Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish. –: 2.TDYU. O'quv qo'llanma, 2023 y. 3-25 - betlar. (asosiy o'quv adabiyoti)
3. Yildiz, M. (2007). E-government research: Reviewing the literature, limitations, and ways forward. Government Information Quarterly, 24(3), 646-665.
- United Nations E-Government Survey 2020: Digital Government in the Decade of Action for Sustainable Development
4. Gulyamov, S.S. (2020). O'zbekistonda elektron hukumat: bugungi holat va istiqbollari. Huquq va boshqaruv, 2, 15-25.
5. DAVLAT BOSHQARUVIDA "ELEKTRON HUKUMAT" TIZIMI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/750/956>
6. e-Governance: the Estonian Case - ESMH <https://share.google/DLazuGAHkKOAjagmY>
7. "Elektron hukumat" tizimida qatnashishda tutgan o'rni <https://share.google/ap8FpSxGkJE03Nbm7>

8. Yangiliklar | Elektron hukumat: Farovon jamiyat, qudratli davlat sari dadil qadam
<https://share.google/z6zr80KgkA1MTD877>
9. ResearchGate <https://share.google/8nSwCxqglxqO5t1xS>.



INNOVATIVE
ACADEMY